

YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA IJTIMOIIY PEDAGOGIKA VA OILA PEDAGOGIKASINING INTEGRATSIYASI

Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Pedagogika yo'nalishi talabasi

Nurova Marhabo Abdullo qizi

nurovamarhabo249@gmail.com

Annotasiya: Mazkur maqolada yosh avlod tarbiyasida ijtimoiy pedagogika va oila pedagogikasining o'zaro uzviy bog'liqligi hamda integratsiyasi ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari, jamiyat va ta'lim muassasalarining ijtimoiy-pedagogik vazifalari, shuningdek, ularning uyg'unlashuvi jarayonida yuzaga keladigan samaradorlik tahlil qilinadi. Maqolada yunogogikaning yoshlar tarbiyasidagi metodik yondashuvlari asos qilib olinib, oilaviy va ijtimoiy muhitning shaxs kamolotiga ta'siri keng yoritiladi. Shuningdek, yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalashda pedagogik hamkorlikning o'rni, zamonaviy tarbiya shakl va metodlari ham ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Pedagogika, yoshlar, yunogogika, ijtimoiylashish, tarbiya.

Kirish. Jamiyatda o'z o'rnini topishga intilish, o'z rollarini to'g'ri bajarishga harakat qilish, o'z oldiga aniq maqsadlar qo'yish, yoshlarning madaniy dunyoqarashi qay darajada shakllanganligiga bog'liq. Aniq madaniy dunyoqarashga ega bo'lgan, turli ijtimoiy xodisalarning ijobiy va salbiy oqibatlari haqida to'g'ri tasavvur hosil qila oladigan yoshlarga o'z hayot yo'llarini aniq belgilab olishga harakat qiladilar. Yoshlarga nisbatan madaniy tajovuzlar ta'lim muassasasi, jamiyat va oilada ularning bajaradigan rollarini

to'g'ri belgilab bermaslik natijasida vujudga keladi. Shu bois yoshlarni barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazishda ularning madaniy dunyoqarashini shakllantirish, ijtimoiy rollarini anglash va hayotiy maqsadlarini to'g'ri belgilash muhim vazifa sanaladi. Bunda, avvalo, oiladagi tarbiya jarayoni, ta'lim muassasalarida beriladigan bilim va ko'nikmalar, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy muhitning ta'siri beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayonida ularning atrof-muhitga moslashuvi, ijtimoiy qadriyatlarni qabul qilishi, o'z huquq va burchlarini anglashlari muhim o'rin tutadi. Oila, maktab va jamiyatning samarali hamkorligi orqali yoshlarning ijobiy hayotiy pozitsiyasi mustahkamlanib, ularni turli salbiy oqimlardan asrash, mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatish hamda kelajakda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishiga keng imkoniyat yaratiladi. Ijtimoiylashuv shaxsni shakllantiradi, uning muhim xususiyatlari insonning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni bilan belgilanadi: do'stlik, sevgi, oila, ishlab chiqarish, siyosiy va boshqalar. P.N. Nator yozgan. "Inson insoniyat jamiyati tufayli shaxsga aylanadi..., yolg'iz o'smaydi".

Asosiy qismi: Hozirgi axborotlashgan jamiyatda yoshlarni noto'g'ri yo'ldan og'dirish avvalgi davrlarga nisbatan ancha osonlashgani hech kimga sir emas. Buning asosiy omillaridan biri ota-onalarning farzand tarbiyasiga yetarli darajada e'tibor qaratmasligidir. Oila yosh avlodning shaxs sifatida shakllanishida birlamchi tarbiya maskani bo'lib, ota-onaning farzand bilan muloqoti, ularning kunlik faoliyati bilan qiziqishi, maslahat va ko'rsatmalar berib borishi kelajak avlodni yetuk inson qilib tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Biroq zamonaviy yosh oilalarda ko'pincha ota-onalarning bandligi sababli farzand tarbiyasiga yetarli vaqt ajratilmayotgani kuzatilmoqda. Agar ota-onalar farzandlarining jamiyatda munosib o'rin egallashini va yetuk shaxs sifatida kamol topishini istasalar, ularga ko'proq e'tibor qaratishi, ta'lim olishlari va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishlari uchun zarur sharoitlar yaratib berishlari lozim. Shu bilan birga, yosh avlod tarbiyasi mas'uliyati faqatgina

oilaning zimmasida emas, balki ta'lim muassasalari, pedagoglar, mahalla va keng jamoatchilik hamda tegishli davlat organlari zimmasida hamdir. Ta'lim tizimi yoshlarni nafaqat bilim bilan qurollantirishi, balki ularning dunyoqarashini kengaytirishi, mustaqil fikrlash va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishi zarur. Mahalla va ijtimoiy institutlar yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonida ularni qo'llab-quvvatlashi, turli salbiy oqimlardan himoya qilishi muhimdir. Davlat organlari va nodavlat tashkilotlar esa yoshlar huquqlarini himoya qilish, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berishga mas'uldir.

Shular qatorida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi ham yoshlarga oid keng vakolatlarga ega bo'lib, yoshlarning o'z yo'lini topishi va barkamol shaxs sifatida kamol topishida muhim rol o'ynamoqda. Xususan, Agentlik:

yoshlarga oid davlat siyosati sohasidagi davlat dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi;

yoshlar masalalari bo'yicha qonun ijodkorligi faoliyatida ishtirok etadi hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi;

yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirishda ishtirok etadi;

yoshlarga oid davlat siyosatining ro'yobga chiqarilishini tahlil qiladi va uni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

yoshlarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, shuningdek ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

xorijda o'qiyotgan yoshlar bilan ishlashni tizimli asosda tashkil etadi.

Yuqorida keltirilgan vazifalar va chora-tadbirlar yoshlar tarbiyasi va ularning kelajagini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Biroq bu jarayonda nafaqat davlat organlari yoki alohida tashkilotlar, balki jamiyatning har bir a'zosi mas'uliyatni his qilishi zarur. Chunki yoshlar – kelajak jamiyatining poydevori, ularning qanday tarbiyalanishi mamlakat taraqqiyotini belgilab beradi.

Shu boisdan ham yoshlarning har tomonlama barkamol shaxs bo'lib ulg'ayishida ota-ona, oila, ta'lim muassasalari, mahalla va keng jamoatchilikning hamkorligi beqiyos ahamiyat kasb etadi. Har bir fuqaro yoshlarga g'amxo'rlik qilish, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish va hayotiy tajribasini ulashish orqali kelajak avlodni mustahkam poydevorga ega qilib tarbiyalashga hissa qo'shishi kerak. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning iqtidorini yuzaga chiqarish, tashabbuslarini rag'batlantirish va orzu-niyatlarini ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish – bu nafaqat davlat, balki butun jamiyatning burchidir. Zero, yosh avlodning bilimli, vatanparvar, yuksak ma'naviyatli bo'lib voyaga yetishi – mamlakatimiz taraqqiyotining kafolatidir.

Shunday ekan, yoshlarni e'tiborsiz qoldirmaslik, ularning har bir tashabbusini qadrlash, intilishlarini qo'llab-quvvatlash bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki bugungi yosh – ertangi kunning yetuk mutaxassisi, fidoyi rahbari va Vatan tayanchidir.

Shu bilan bir qatorda. Yoshlarning har tomonlama rivojlanishi, ularning huquq va manfaatlari ta'minlanishida O'zbekiston respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonunda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari belgilangan bo'lib, u yosh avlodga bilim berish, ma'naviy-axloqiy tarbiya berish va jamiyatda o'z o'rnini topishiga huquqiy kafolat yaratadi.

Xususan, 'Ta'lim to'g'risida'gi qonunning 8–14-moddalarida yoshlarning ta'lim olish shakl va bosqichlari huquqiy jihatdan belgilab berilgan.

Shunday qilib, yoshlarning ta'lim olish huquqi nafaqat konstitutsiyaviy asosda, balki maxsus qonun hujjatlari orqali ham mustahkamlab qo'yilgan. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 8–14-moddalarida belgilangan normalar ta'limning uzluksizligi, izchilligi va bosqichma-bosqich rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bunda maktabgacha ta'limdan tortib oliy va undan keyingi ta'lim bosqichlarigacha bo'lgan jarayonning huquqiy asoslari yoritilgan. Mazkur moddalarda yoshlarning bilim olish jarayonida tenglik tamoyiliga rioya etilishi, ularning ijtimoiy kelib chiqishi, jinsi, millati, diniy e'tiqodidan qat'i nazar, ta'lim olish huquqi kafolatlanishi alohida ta'kidlanadi. Bu esa jamiyatda ijtimoiy adolatni qaror toptirish, har bir yoshga o'z qobiliyati va salohiyatidan kelib chiqib, intellektual rivojlanish imkoniyatlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, qonunda ta'lim jarayonining nafaqat nazariy bilim berishga, balki yoshlarning ma'naviy-axloqiy, kasbiy va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilishi zarurligi ko'rsatib o'tilgan. Natijada ta'lim tizimi yoshlarning shaxs sifatida shakllanishi, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shuvchi yetuk mutaxassis va fidoyi fuqarolarni tarbiyalashga yo'naltirilgan holda faoliyat yuritadi.

Xulosa: Shunday qilib, yosh avlodni tarbiyalash jarayonida ijtimoiy pedagogika va oila pedagogikasining integratsiyasi nazariy va amaliy jihatdan o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Ularning uyg'unlashuvi natijasida tarbiya jarayonida izchillik va uzluksizlik ta'minlanadi, yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi yanada samarali kechadi. Demak, kelajak avlodni barkamol insonlar sifatida voyaga yetkazishda mazkur ikki pedagogik yo'nalishning o'zaro aloqadorligi va hamkorligini ta'minlash ta'lim-tarbiya tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston respublikasi „ Ta'lim to'g'risida"gi qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan
"Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni.

3. Yo'ldoshev Elyorjon Sodiqovich. Yunogogika. (darslik) Qo'qon-2024.